

---

## **ONA TILI TA'LIMIDA GLOBAL TA'LIM AMALIYOTLARIGA MOSLASHISH**

**Uzoqova Maftuna Abdirazzoqovna**

*Qashqadaryo viloyati Pedagogik mahorat markazi Maktabgacha ,  
boshlang'ich va maxsus ta'lif kafedrasi katta o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili ta'limining zamonaviy global tendensiyalar bilan uyg'unlashuvi, ta'lif mazmuni va metodikasida yuz berayotgan yangilanishlar tahlil qilingan. Jumladan, funksional savodxonlik, kommunikativ yondashuv, raqamli texnologiyalardan foydalanish, ko'p tillilik va madaniyatlararo muloqot kabi yo'naliшlarning ona tili darslaridagi aks etishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalarni o'r ganish va mahalliy sharoitga moslashtirishning ahamiyati asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** ona tili ta'lifi, global ta'lif tendensiyalari, funksional savodxonlik, kommunikativ yondashuv, raqamli texnologiyalar, ko'p tillilik, madaniyatlararo muloqot, innovatsion metodika, integratsiya, kompetensiya yondashuvi.

**Аннотация:** В статье рассматривается процесс адаптации преподавания родного языка к современным глобальным образовательным тенденциям. Анализируются обновления в содержании и методике обучения, такие как развитие функциональной грамотности, коммуникативный подход, использование цифровых технологий, многоязычие и межкультурная коммуникация. Подчёркивается важность изучения передового международного опыта и его адаптации к местным условиям.

**Ключевые слова:** обучение родному языку, глобальные образовательные тенденции, функциональная грамотность, коммуникативный подход, цифровые технологии, многоязычие, межкультурная коммуникация, инновационные методики, интеграция, компетентностный подход.

**Abstract:** This article explores the adaptation of mother tongue education to contemporary global educational practices. It analyzes recent innovations in content and methodology, including functional literacy, communicative approaches, the integration of digital technologies, multilingualism, and intercultural communication. The paper highlights the importance of studying advanced international experiences and tailoring them to local educational contexts.

**Keywords:** mother tongue education, global educational trends, functional literacy, communicative approach, digital technologies, multilingualism, intercultural communication, innovative methodology, integration, competency-based approach.

“Global ta'lism amaliyoti” tushunchasi

Global ta'lism amaliyoti — bu XXI asr chaqiriqlariga javob bera oladigan o'quvchilarni tayyorlash maqsadida xalqaro ta'lism tizimida tan olingan va qo'llaniladigan universal yondashuvlar, usullar va strategiyalar majmuasidir. Ushbu amaliyotlar quyidagilarga asoslangan:

kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikma va salohiyatlarni (4K: tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot, hamkorlik) shakllantirish;

raqamli texnologiyalardan foydalanish;

fanlararo va loyiha asosida ta'lism berish;

inklyuzivlik, barqaror rivojlanish va global fuqarolik tamoyillari.

## 2. Global ta'lism amaliyotining asosiy xususiyatlari

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv – o'quvchi nimani biladi emas, balki nimani qila oladi, degan narsaga e'tibor qaratiladi.

Fanlarni integrasiya qilish – masalan, STEAM, CLIL usullarini qo'llash.

O'quvchiga yo'naltirilgan ta'lism – faol ishtirok, shaxsiy mas'uliyatni rivojlantirish.

Moslashuvchanlik va gibkiylik – tez o'zgaruvchi realliklarga javob beradigan ta'lism.

Rivojlanishga qaratilgan baholash – formativ baholash, o'ziga baho berish, portfolio tuzish.

AKT va raqamli manbalardan foydalanish – masofaviy ta'lism, elektron platformalar, sun'iy intellekt.

Nega global ta'lism amaliyoti muhim?

1. XXI asrda hayot va ishga tayyorgarlik. Ma'lumot tez eskiradigan dunyoda umrbod o'rghanish ko'nikmalari (lifelong learning) muhim ahamiyat kasb etadi.

2. O'quvchilarning global raqobatbardoshligi. Har bir davlat o'z bitiruvchilarini xalqaro bozorda raqobatbardosh etishni istaydi.

3. Xalqaro reytinglar va tadqiqotlarga integrasiya (PISA, TIMSS va h.k.) Milliy ta'lism sifatini oshirish uchun xalqaro standartlar e'tiborga olinishi lozim.

4. Ijtimoiy va madaniy harakatchanlik. Talabalar boshqa davlatlarda o'qishadi, xalqaro jamoalarda ishlashadi, turli madaniy muhitda muloqot qilishadi.

5. Sifatli ta'limga teng imkoniyat. Har bir bola jinsi, yashash joyi yoki ijtimoiy holatidan qat'i nazar, zamonaviy ta'limga ega bo'lishi kerak.

Ta'limga global tendensiylar va asosiy yo'nalishlar (XXI asr ko'nikmalari — 4K asosida)

1. Bilishdan kompetensiyaga o'tish. Zamonaviy ta'lism tizimi faqat bilim berishdan voz kechib, hayotda kerak bo'ladigan kompetensiyalarni rivojlantirishga intiladi.

2. Global ta'lism tendensiylarining asosiy yo'nalishlari



**1. XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish (4K).**

Ijodkorlik (Creativity). Yangi g'oyalar, noan'anaviy fikrlash, muammolarga kreativ yondashuv. Misol: o'z hikoyalarini yozish, syujetga boshqa tugash yozish.

Tanqidiy fikrlash (Critical thinking). Ma'lumotni tahlil qilish, savol berish, xulosa chiqarish. Misol: adabiy matn tahlili, muallif nuqtai nazarini aniqlash.

Hamkorlik (Collaboration). Guruhda ishlash, vazifalarni taqsimlash. Misol: guruhli loyiha ishi, adabiy kvestlar.

Muloqot (Communication). Fikrni og'zaki va yozma ravishda ifodalash, bahslashish. Misol: debatlar, blog yuritish, esse yozish.

**2. Ta'limni raqamlashtirish (EdTech)** Interaktiv platformalar, ilovalar, II va onlayn kurslar; Raqamli savodxonlikni shakllantirish.

**3. Ta'limni shaxsiylashtirish** va individuallashtirish. Har bir o'quvchining darjasи va qiziqishlarini hisobga olish; Adaptiv texnologiyalar.

**4. Integrativ va fanlararo yondashuv (STEAM, CLIL)**. Ilm, san'at, texnologiya va tilni birlashtirish.

**5. Barqaror rivojlanish uchun ta'lim (ESD)**. Ekologik, madaniy va ijtimoiy ongni shakllantirish. Mas'uliyatlari fuqarolikka tayyorlash.

Global ta'lim tendensiyalari o'quvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv, mehnat va o'zini rivojlantirishga tayyorlash uchun universal kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. 4K ko'nikmalari – ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va muloqot – XXI asrda muvaffaqiyatga erishishning asosi hisoblanadi.

Ona tilini o'qitishni global ta'lim standartlariga moslashtirish yo'llari

Hozirgi kunda ta'lim global ta'lim makoniga jadal kirib bormoqda. Bu barcha fanlarni, jumladan ona tili ta'limida ham yangilanishni talab qiladi. Ona tili – milliy madaniyat asosi va tafakkurni rivojlantirish vositasi sifatida XXI asr talablariga mos ravishda o'qitilishi kerak.

**1. Ona tili ta'limida kompetentsiyaga asoslangan yondashuv.** Til va muloqot kompetensiyasi; Tanqidiy fikrlash va matn tahlili; Hamkorlikda ishlash; Raqamli muhitda ona tilidan foydalanish.

**2. XXI asr ko'nikmalarini ona tili darslariga integrasiya qilish.** Tanqidiy fikrlash: matn tahlili, muallif pozisiyasini aniqlash. Ijodkorlik: hikoya yozish, media loyihamalar. Muloqot: debat, nutq, intervyu. Hamkorlik: guruhli izlanish, taqdimotlar.

**3. Raqamli texnologiyalar va multimedia manbalaridan foydalanish.** Interaktiv platformalar (Kahoot, Padlet, Quizlet); Elektron kitoblar, onlayn kutubxonalar; Sifrovoe portfolio; Audiokitob, podkast va videobloglar.

4. Global amaliyotlarga mos metodik yondashuvlar.Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning);Fanlararo yondashuv (CLIL, STEAM);Inklyuziv ta'lif;Formativ baholash: o'zini baholash, fikr-mulohaza.

5. Ona tili o'qituvchilari malakasini oshirish.Xalqaro metodikalarni o'rganish;Raqamli vositalardan foydalana olish;Onlayn kurslar (Coursera, EdX)da qatnashish;Yangi dasturlar va metodik materiallar ishlab chiqish.

#### Xulosa

Ona tili ta'limida global standartlarga moslashuv – bu shunchaki darslikni yangilash emas, balki maqsad, metod va shakllarni tubdan qayta ko'rib chiqishdir. Faqat shu yo'l bilan o'quvchilarni zamonaviy hayotga tayyorlash, milliy qadriyat va tilni asrab qolish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Hasanboyeva, M. T.**Zamonaviy ona tili o'qitish metodikasi**.– Toshkent: O'qituvchi, 2020.
- 2.Kadirova, N. Sh.**Kompetensiyaviy yondashuv asosida ona tili ta'limi**.– Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Vygotsky, L. S.**Thought and Language**.– Cambridge, MA: MIT Press, 1986.
- 4.Cummins, J.**Language, Power and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire**.– Clevedon: Multilingual Matters, 2000.
- 5.OECD.**Global competency for an inclusive world**.– Paris: OECD Publishing, 2018.
- 6.UNESCO.**Rethinking Education: Towards a Global Common Good?**– Paris: UNESCO Publishing, 2015.
- 7.Mavlonova, R. X.**Ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy yondashuvlar**.– Toshkent: Ilm Ziyo, 2019.
- 8.Richards, J. C., & Rodgers, T. S.**Approaches and Methods in Language Teaching**. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.